



ZULFIYANING “BAHOR KELDI SENI SOG’INIB”

SHE’RI BADIY TAHLILI

Maqsudova Odina Mutalipxon qizi

Andijon Davlat Universiteti

Adabiyotshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoira Zulfiyaning eng mashhur she’rlaridan biri badiiy tahlil qilingan. Ushbu she’rning har bir bandi xususida alohida to’xtalgan holda u haqida fikrlar bildirilgan. Ma’lumki, Hamid Olimjon va Zulfiya ijodida uzviy bog’liqlik mavjud. Mazkur maqolada mana shu bog’liqlik haqida ham so’z boradi. Maqolada Zulfiyaning his-tuyg’ulari masalasida ham she’rdan kelib chiqqan holda fikrlar bildirilgan.

Kalit so’zlar. O’rik gullaganda, Hamid Olimjon, bahor, O’zbekiston, O’tkir Hoshimov, talmeh, Farhod.

Abstract: This article presents an artistic analysis of one of the most famous poems of the poetess Zulfia. Each clause of this poem is discussed separately. It is known that Hamid Olimjon and Zulfiya’s works are closely related. This article also talks about this connection. In the article, Zulfiya’s feelings are expressed based on the poem.

Keywords. When apricots bloom, Hamid Olimjon, spring, Uzbekistan, Otkir Hashimov, talmeh, Farhod.

Ushbu she’r Hamid Olimjonning mashhur she’riga javob tariqasida yozilgan desak ham bo’ladi. Avvalboshda Hamid Olimjonning o’rik guli haqidagi she’rni yodga olib o’tgan shoira o’zining ichki hislari va g’amgin qayg’ularini ham misralar qatiga singdirishga muvaffaq bo’lgan. Zulfiyaxonimning mazkur she’ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:



Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Endi esa yanada tushunarli bo'lishi, ikki she'r o'rtasidagi bog'liqlik ko'zga yaqqol tashlanib turishi uchun Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ridan olingan quyidagi misralarini keltirib o'tamiz:

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim vatan tuprog'in.

Hamid Olimjon jondan sevgan vatanga, yurtga, vodiylarga bahor qaytib keldi. Albatta, usiz! Lekin hali shoir a buni oshkor etmadi. Shunchaki, bahorni qaytgani haqidagi xabar yetkazildi o'qiguvchiga. Hali she'rdagi dard aksi o'zini namoyon etishga ulgurmadi. Hali shoiraning qayg'usi o'qiguvchiga bo'y ko'rsatmadi. Keyingi satrning boshidanoq shoir a endi yolg'iz ekanini, yonida yori endi yo'qligini oshkor etadi:

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.



Yana Hamid Olimjonga ijodiga murojaat qilamiz. Shoirning qo'shiqlarga aylangan, xalq tilidan qo'ymay hanuz hirgoyi qiladigan satrlari Zulfiya go'yo yana bir bor hayolida jonlantirgan va unga javob bitgan:

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...
Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib keldi gulning totini.

E'tiboringizni Zulfiya topgan alqovlarga qaratmoqchiman. Xususan, yoriga murojaat qilayotgan paytdagi so'zlar insonni hayratga solidi. Ushbu murojaat so'zlar o'zining originalligi, takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi bandeda Zulfiya yoriga "bag'rim" deya yuzlangandi. Quyidagi satrda esa shoirni "qimmatligim" deya ataydi:

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.

O'zbek, nafaqat o'zbek, balki butun dunyo folklorshunosligida ham qish va bahor doim bir-birini quvib yuradigan, hech qachon bir-biriga duch kelmaydigan, uchrashmaydigan qarama-qarshilik, konflikt sifatida ko'riladi. Zulfiya esa o'z she'rida jonlantirish san'atidan foydalangan holda o'rtadagi ushbu konfliktni yo'qqa chiqardi. Shoiraning nazdida har ikki fasl bir-biri bilan janjallashgan. Sabab esa shoirning yo'qligi! Shoirni topa olmagan bahor, har tarafni sarsari kezib shoirga duch kelmagan bahor noiloj qishning yoqasidan oladi.



Shoirning qaydaligini so'raydi. Lekin qishning ham unga aytar so'zi yo'q! u ham mahzun, u ham qayg'uga cho'mgan. Bir insonni ko'z oldingizga keltiring: u juda ham qayg'uga botgan bo'lsa-yu, bir inson kelib uning yoqasidan olsa nima qiladi? Hech narsa! Jimgina yoqasini bo'shatadi-da, nari ketadi. Xuddi Zulfiyaning she'ridagi qish kabi! Chunki qishning ham ko'nglida alam bor, ko'zida yosh bor. Bunday ajoyib o'xshatish va jonlantirish namunasi hamma ijod ahlida ham uchrayvermaydi.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.

Keyingi misralarda endi bahor o'z shakl-shamoyilini o'zgartirdi. U endi oddiygina fasl emas, endi u qishning yoqasidan tutgan bahor emas. U endi shabbodaga aylandi. Bilasizki, bahor o'zining mayin shabbodalari bilan jazirama yozdan farq qiladi. Shunday ekan, tom ma'noda bahor va shabboda so'zlari ma'nodosh hisoblanadi. Bu shabbodaning ham faqat bir maqsadi bor: u ham bo'lsa shoirni izlab topishdan iborat! Topgandan so'ng qilishi kerak bo'lgan ish ham aniq: bor husnini, jamolini, ko'rkini, tarovatini yoyib shoirga ko'rsatish.

Agar shabboda shoirni topa olmasa nima bo'ladi? Bir inson izlagan narsasini topmasa qay holga tushadi? Xalqona til bilan aytadigan bo'lsak, boshini toshlarga uradi, telbaga aylanadi. Shabboda ham shunday bo'ldi. Endi u qudratli bo'ronga aylandi:

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.



Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan

Qayda shoir, deya ayladi so'roq.

Barida sukunat, ma'yuslik ko'rib,

Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

Yuqoridagi misralarda bo'ronga aylangan bahorning "qilmishlari" qalamga olingan. Uning sabri tugadi, boshini jarliklarga olib ketdi, Farhod kezgan tog'lardan shoirning daragini izlash bilan ovvora bo'ldi, tog'larning boshini soylar ustiga qulatdi. Bog'lar va tog'lardan so'ng shoirni so'rash navbati qo'ychivonlarga keldi. Kimdan so'rar bo'lsa bari sukunat bilan hamda ma'yuslik bilan javob berdi. Savoliga javob ola bilmagan inson kabi bo'ronga aylangan bahorning toqati toq bo'ldi. Endi u boshqa narsaga aylanishi kerak. Shunday ekan, navbat jiloga keldi:

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,

Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.

Singib yosh kuydirgan za'far yonog'imga

Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Bundan avvalgi bandda shoira Farhod nomini tilga olgandi. Bilamizki, bu she'riy san'at bo'lib, adabiyotshunosligimizda u talmeh deb ataladi. Talmeh (arabcha; nazar solmoq, ko'z qirini tashlash) – qahramon siymosini gavdalantirishda uni o'tmishdagi ma'lum tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, o'xshatadi. Ba'zan qahramonning ismi-shariflari aytilmay, ular bilan bog'liq voqealar esga olinishi mumkin. Har ikki holda ham talmeh san'ati sodir bo'ladi.¹

¹ Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr, 2010.



Farhod obrazini yodga olish albatta, Navoiy asarlari bilan bog'liqdir. Farhod – sharq xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Farhod qadimiy mifologiya va folklorda tog' qahramoni sifatida tasvirlangan. Rivoyatlarda Farhod afsonaviy kuchlardan ham yuqori qo'yilgan. Badiiy adabiyotda dastlab fors-tojik shoiri Og'ochiy (X-XI asrlar) she'rlarida tilga olingan. Bal'amiyning "Tarixi Tabariy", Abu Dulafning "Risolayi soniya" asarlarida Farhod Shirin bilan bog'liq qahramon sifatida eslangan. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib Nizomiy Ganjaviy Farhod obrazini keng epik planda tasvirlagan. XIV asrda Nizomiyning dostonini Qutb turkiyga tarjima qilgan. Xusrav Dehlaviy o'zining "Shirin va Xusrav" asarida Nizomiyning izidan borgan. Farhod obraziga ayrim aniqliklar kiritgan. Nizomiyda Farhodning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar yo'q. Xusrav Dehlaviyda u Chin xoqonining o'g'li. Lekin ularda Farhod qahramon darajasiga ko'tarilmagan. Orif Ardalibiyning "Farhodnoma" dostonidan (1369-yilda yozilgan) boshlab Farhod markaziy qahramon sifatida tasvirlana boshlagan. Farhodning mukammal epik obrazini Alisher Navoiy yaratgan. Navoiy Farhod obrazi orqali ideal inson haqidagi gumanistik qarashlarini ifodalab, eng yuksak insoniy fazilatlarni madh etgan. Navoiy dostonida Farhod va Shirinning chin sevgisi haqida hikoya qiladi va shu muhabbat fonida ijtimoiy hayot muammolarini yoritadi. Keyinroq Farhod haqida Kavsariy, Nizoriy va boshqalar dostonlar yaratdi. So'nggi davr dostonlari va sahna asarlarida ham Farhod obrazi yaratilgan. Masalan, Xurshidning "Farhod va Shirin", Samad Vurg'unning "Farhod va Shirin", Skosirevning "Farhod" asarlari va boshqalar.²

Keyingi bandda esa Zulfiya yana talmeh san'atiga murojaat qilgan. Endi olis moziy qatlarida yashirin bo'lgan qahramonlar, o'zi hayotda duch kelmagan insonlarni emas, balki doim yonida bo'lgan insonlarni she'riy qahramon sifatida tanlab oldi. Bu shoiraning farzandlari edi: Hulkar va Omon. Zulfiyaxonimning hayotida farzandlari qanday katta o'rin

² [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Farhod_\(obraz\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Farhod_(obraz))



tutganini yaqqol tasavvur qilish uchun “Sensiz” nomli she’rdagi quyidagi satrlarni ko’rib o’tish kifoya:

Tobuting boshida cho’kkanimda tiz,
Farzandlar ko’tardi qo’limdan tutib.

Ijodkorlar oilasida tavallud topgan ushbu farzandlar haqida ko’plab ma’lumotlar yo’q qo’limizda. Lekin afsus bilan aytishimiz mumkinki, Zulfiya va Hamid Olimjonning qizi, filolog Olimjonova Hulkar Hamidovna 2017-yilda vafot etgan. Shoirasi jiloga aylangan bahorning keyingi manzili sifatida o’g’li Omon va qizi Hulkarning yuzlari deb belgiladi. Bu vaqtda Zulfiya qanday ahvolda edi? Albatta, iztirobli. Uning ko’z yoshlari yanoqlarida adabiy iz qoldirgandi hamda bu yoshlar shoiraning yuzini za’faron rangga o’ragandi. Jilo esa aynan mana shu yanoqlarga singib ketdi.

Aslida bahorning maqsadi shoiradan yoki uning farzandlaridan xabar olish emasdi. Uning niyati shoirni, Hamid Olimjonni topish edi. Shu sababdan ham uni qidirishda davom etadi. Keyingi manzil, yuqorida ham aytib o’tilganidek, Zulfiyada, ya’ni Zulfiyaning yotog’ida bo’ldi. Ammo u yerdan ham topa olmaganini shoiraning o’zi she’r davomida aytib o’tadi:

Lekin yotog’imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo’ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so’ray ketdi qalbimni tilib:



O'z maqsadiga erisha olmagan bahor yana avvalgi holiga shabbodaga, yelga aylandi. Endi izlash befoyda ekanini u tushunib yetgandi. Shu sababdan ham o'zi sarson kezib izlash o'rniga shoiradan, Zulfiyadan so'rashni ma'qul deb bildi:

“Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
“Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab”
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?

Mana shu o'rindagi “Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab” misrasi Hamid Olimjonga tegishli ekanligi hech kimga sir emas. Chunki bu misra qo'shtirnoq ichida, muallif gapi sifatida berilgan. Lekin shuni aytish kerakki, Hamid Olimjon bu misrani aynan shu holda qo'llamagan. Shoirning “O'rik gullaganda” nomli she'rida shu kabi misralar mavjud, lekin ayni shu qurilishda emas. Shoira Hamid Olimjon yozgan misralarning mag'zini bir misraga sig'dira olgan. Shu o'rinda “O'rik gullaganda” she'ridagi ushbu parchani keltirib o'taman:

Mayli deyman va qilmayman g'ash,
Hayolimni gulga o'rayman,
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuqorida ham aytib o'tganimizdek, ushbu to'rt misra Zulfiyaning she'rida bitta misra holiga kelgan. Bahor Zulfiyani yana so'roqqa tutishda davom etadi. Aniqki savollarning barchasi Hamid Olimjonni topish uchun, aynan mana shu maqsad yo'lida beriladi. Shu ham alohida aytish kerakki, ushbu she'r Hamid Olimjonning “O'rik gullaganda” she'ridan ilhom olgan holda yozilgan:



O'rik gullariga to'nmaydi nega,
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
Mudom ko'rar edim o'z jamolimni.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?"

U endi barchasiga tushundi. Shoiraning qora libos kiyib olganining sababini bahor biladi. Lekin bunga ishonmay, shoiraning o'z tilidan eshitmoqchi. Zulfiya esa junga javob berishi kerak. Bu she'rni romantizmning yorqin namunasi deb ham atashimiz mumkin. Shunki o'rtadagi dialog mavhum bir obyekt bilan sodir bo'ladi. Realist ijodkor har bir holat va harakatga qat'iy ishonch bilan yondashadi. Shunday ekan realistning bahor bilan suhbatlashishi mantiqqa biroz to'g'ri kelmaydigan holat. Zulfiya esa bahor bilan uzundan uzoq suhbatlashdi. U bilan yori, turmush o'rtog'i haqida suhbat qurdi. Demak, Zulfiya romantizmning vakilasi.

She'rning davomini o'qir ekanmiz, bahor Zulfiyadan javob kutayotganiga guvoh bo'lamiz. Lekin muhimi Zulfiyaning nima deb javob berishi va bahorga nisbatan qanday



munosabatda bo'lishidir. Zulfiya esa javob qilishga qodir emas. Uning javobi qilgan ishi bilan bo'ladi:

Qanday javob aytay, loldir tillarim.
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g'aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Tushunganingizdek Zulfiya hech bir javob bermadi. Shunchaki bahorni yoqasidan tutib qabriston sari olib keldi. Shu yerda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida bitilgan satrlarga e'tibor qarating: "Bahor devorlarning oftobro'ya etaklaridan boshlanmaydi. Bahor ariqlarning kungay sohillaridan boshlanmaydi. Bahor go'ristondan boshlanadi. Ilk maysalar mungli do'ppaygan qabrlar yonboshidan unib chiqadi. To'ng'ich chuchmomalar eng avval sukutga cho'mgan qabriston ustida ma'yus qo'ng'iroqlarini chaladi. Bag'ri qon qizg'aldoqlar birinchi bo'lib mana shu yerda ochiladi."³

Nega Zulfiya haqidagi izlanish orasida O'tkir Hoshimovni ham esladik? Chunki shoira bahorni qabristonga yetaklab bordi, yozuvchi esa buni tasdiq etdi. Bahorning qabristondan boshlanish sababini Zulfiya go'yo "Bahor har yili shoirimni ko'rish uchun birinchi bo'lib qabristonga boradi" deya ta'riflagandek bo'ldi.

She'rga qaytamiz, bahor ham shoirning qabri qoshida bardosh bilan tura olmaydi. Hech bir yaratiq sevganining mozori qarshisida sokin turolmaydi. Hozir ham Toshkent shahridagi Ko'kcha qabristoniga borsangiz, Hamid Olimjonning qabri uzoqlardan ko'zga tashlanib turadi. Bugungi kunimizda bu yerda yana bir o'zgarish bo'lgan. Zulfiya ham Hamid Olimjonning qabri oldiga dafn etilgan. Ya'ni ular yaxshi ma'noda, hamma havas qiladigan

³ O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari". "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, Toshkent, 2018. 189-bet



bir vaziyatda “qo’shmozor” bo’ldilar. She’ning davomida esa bu mash’um xabarni eshitgan bahorning bundan keyingi qilgan harakatlari qalamga olingan:

Alamda tutoqib daraxtga ko’chdi,
Kurtakni uyg’otib so’yladi g’amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g’unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo’shiq.
Bu qo’shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to’liq.

Bahor bu xabarni qolgan birodarlariga ham yetkazishga tushdi. Ishni kurtakka aytishdan boshladi. So’ng bahorning o’zi qo’shiq aytishga tushdi. Shu pallada Zulfiya bir narsani tushunib yetdi. Abadiy haqiqatni angladi. Hamid Olimjon o’lmagan. Buni tushunib yetishida unga albatta, bahor yordamchi bo’ldi. She’ning qolgan qismi mana shu haqiqatni baralla aytish bilan davom etadi va mana shunday baland pardalarda o’z yakuniga yetadi:

Bahorga burkangan sen sevgan elda
Ovozining yangradi jo’shqin, zabardast.
O’lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

She’ning eng so’nggi bandi mukammal holatda yozilgan. So’nggi misra ulkan hayqiriq bilan tugallanadi. Yakuniy qaror chiqariladi, eng oxirgi hukm o’qiladi. She’rdagi xulosa



shuki, shoir o'lmagan. U hamon tirik. Faqat makon o'zgargan. Endi u shoira bilan birgalik yashaydi. Shoirning umri Zulfiyaning umri bilan tenglashgan. Zulfiyaxonim tirik ekan, Hamid Olimjon ham o'lmaydi:

Hijroning qalbidan, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Bandning ilk misrasidagi "sozing qo'limda" jumlasiga e'tibor bering. Zulfiyaning o'zi Hamid Olimjonning davomchisi ekanligi o'zi ta'kidlab o'tmoqda. Hamid Olimjon vafot etdi, ammo uning ijod sozi yerga tushmadi. Uni boshqa qo'l, ishonchli qo'l, turmush o'rtoqning, yorning qo'li tutdi. Muhabbat hayotni abadiy qiladi. Ushbu soz orqali muhabbat, she'riyat abadiy yashaydi. Shu sozdan kuy taralib turar ekan, shoiraning alamlari ham chekinadi. She'r yozar ekan, hijron o'ti biroz o'chgandek bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya shoir bilan birga kechgan ana shu baxtli yillarda har qanday iste'dod doimiy mehnat tufayli charxlanib borishi, haqiqiy san'atkor buyuk mehnat intizomiga ega bo'lishi lozimligini ko'rdi. Hamid Olimjon har qanday sharoitda ham erta bilan soat oltidan o'n birga qadar uyda ijod bilan shug'ullanar, so'ng hali siyohi qurimagan asarini ovoz chiqarib o'qir va uning qanday jaranglashini tekshirib ko'rar edi.

Zulfiya o'zining har bir she'rini uning nazaridan o'tkazar, ammo Hamid Olimjon bu she'rlarga qalam urmas, balki ulardagi kuchli va kuchsiz satrlarini ko'rsatar, tushuntirardi.

Ulkan shoir, nodir insoniy fazilatlar sohibi Hamid Olimjon Zulfiyaga, hamma narsada o'rnak buldi. Zulfiya ulkan shoirdan fikrlash, mehnat qilish va she'r yozishni ham, do'stlarga mehribon, dushmanga esa shafqatsiz bo'lishni ham o'rgandi, uning ijod maktabida ta'lim



oldi. Hamid Olimjon shu ma'noda Zulfiya qalbiga uyg'un hamroh va sezgir maslahatchi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Zulfiya. D.Quronov. "Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari".
2. Naim Karimov. "Hamid Olimjon va Zulfiya". Toshkent.
3. kh-davron.uz sayti
4. Болтабоев Х. Адабиёт энциклопедияси. 1-жилд. (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015.
6. Hatamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati. Toshkent, O'qituvchi. 1979